



**O'ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

Siyosatshunoslik fanining zamonaviy muammolari va amaliy yo'nalishlari

**MODULI BO'YICHA
O'QUV – USLUBIY
MAJMUA**

2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“Siyosatshunoslik fanining zamonaviy
muammolari va amaliy yo‘nalishlari”**

**MODULI BO‘YICHA
O‘QUV-USLUBIY MAJMUА**

“SIYOSATSHUNOSLIK VA XALQARO MUNOSABATLAR”
yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari
professor-o‘qituvchilari uchun

Toshkent – 2025

Mazkur modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “27” dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: s.f.d., (DSc) professor H.I.Rajabov
s.f.n., dotsent U.I.Islombekov

Taqrizchilar: s.f.d., prof. N.K.Jo‘rayev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
s.f.d., prof. B.A.Amonov – O‘zbekiston Milliy universiteti.

*O‘quv-uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024- yil “29” noyabrdagi 4-sonli bayonnomasi).*

MUNDARIJA

<u>I. ISHCHI DASTUR</u>	5
<u>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.</u>	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА. 9
<u>III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI</u>	29
<u>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI</u>	61
<u>V. GLOSSARIY</u>	80
<u>VI.NAZORAT SAVOLLARI</u>	98
<u>VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI</u>	101

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdaga tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzuksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzuksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyulndagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamlı kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, siyosatshunoslik

fanining zamonaviy muammolarini hal etish va amaliy yo‘nalishlaridan foydalanish, xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiylarini amaliyatga tadbiq etish bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“Siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faoliydarajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minalash;

-o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minalash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“Siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minalash.

Kurs yakunida tinglovchilarining bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- “Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” Qonunlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyatga tadbiq etish istiqbollarini;

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
 - jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
 - “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni;
 - Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
 - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
 - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
 - Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
 - Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
 - oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korruksiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
 - ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
 - raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
 - raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
 - mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
 - raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
 - meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklarini;
 - zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;
 - ta’limda sun’iy intellektningdan foydalanish istiqbollari va xavflarini;
 - bilimlarni sinash va baholashning aqlii tizimlarini;
 - jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;
 - zamonaviy ta’limning global trendlarini;
 - inson kapitalining iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagи ahamiyatini;
 - oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
 - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
 - zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
 - universitetlarning zamonaviy modellarini;
 - zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
 - tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
 - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
 - innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;

- kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksilogik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta’sirini;
- kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘sirlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
- siyosatshunoslik fanining metodologik asoslari va zamonaviy yondashuvlarini;
- siyosiy yetakchilik va elitalar nazariyasini;
- siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlarning evolyutsiyasini;
- zamonaviy saylov tizimlari va elektoral jarayonlarni;
- O‘zbekistonda demokratik islohotlarning zamonaviy bosqichini;
- siyosatshunoslikda yangi ilmiy paradigmalar va tadqiqot usullarini;
- demokratik jarayonlarning zamonaviy tendensiyalarini;
- zamonaviy xalqaro nizolar va ularni hal etish mexanizmlarini;
- zamonaviy diplomatiya: shakllari va usullarini;
- xalqaro ekologik muammolar va ularning siyosiy jihatlarini;
- xalqaro munosabatlar nazariyasi: asosiy tushunchalar va konsepsiylarini;
- mintaqaviy xalqaro tashkilotlar faoliyati va ularning hamkorlik mexanizmlarini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- “O‘zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O‘zbekistonning xalqaro maydonagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
- yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o‘zlashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejali va fan dasturlarini takomillashtirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
 - masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;
 - Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
 - raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
 - pedagogik jarayonda sun’iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini olib berish;
 - ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;
 - OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
 - jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
 - universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
 - tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;
 - Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolarni aniqlash;
 - zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
 - pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini olib berish;
 - pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;
 - o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
 - tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;
 - kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
 - kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
 - talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
 - talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
 - baholashning miqdor va sifat tahlilini amalgalash;
 - siyosiy konfliktologiya va mojarolarni boshqarish;
 - fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish dinamikasidan foydalanish;
 - siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlar evolyutsiyasining ahamiyatini olib berish;
 - zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining shakllanishi va rivojlanishini tahlil etish;
 - siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining rolini asoslash;
 - globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlarning transformatsiyasi sifatini baholash;
 - BMT va uning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashdagi rolini tahlil etish va baholash ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
- mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar bilan ishlash;
- davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini o‘zlashtirish;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;
- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
 - mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
 - pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
 - raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
 - meta texnologiyalarni ta’limga samarali integratsiya qilish yo‘llidan foydalanish;
 - ta’limdagi sun’iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;
 - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
 - OTM reytingiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish;
 - universitetlarning zamonaviy modellarini o‘rganish;
 - OTM bitiruvchilarini va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
 - professor-o‘qituvchilarining tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
 - innovatsion ta’lim muhitni sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
 - pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
 - ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
 - o‘quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarining ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
 - tinglovchilarining kasbiy kompetensiyalarini o‘rganish, tanishish;

- kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini olib berish;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- xalqaro siyosiy tizimda davlatlarning o‘rni va rolini izohlash;
- xalqaro munosabatlarda madaniy-gumanitar hamkorlik ahamiyatini olib berish;
 - xalqaro munosabatlarda energetik omilning rolini asoslash;
 - siyosiy yetakchilik va elitalar nazariyasini o‘zlashtirish;
 - milliy xavfsizlik va uning zamonaviy tahdidlari va uni aniqlovchi omillarni belgilash;
 - xalqaro munosabatlarda madaniy-gumanitar hamkorlikni amalga oshirish;
 - migratsiya jarayonlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta’sirini aniqlash;
 - xalqaro tashkilotlarning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rnini yoritib berish;
- siyosiy madaniyat va siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlarini prognoz qilish usullari va mezonlarini qo’llash ***malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish;
- yoshlar ma’naviyatini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta’minalash;
- oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minalash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo’llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasidan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;
- raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga

tatbiq etish;

- meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta’limdagi ta’sirini ochib berish;
- sun’iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijorathashtirish yo‘llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo‘llash;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘sirlarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- zamonaviy saylov tizimlari va elektoral jarayonlardan foydalanish;
- siyosiy mafkura va uning zamonaviy shakllarini qo‘llash;
- siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmlari va texnologiyalarini qo‘llay olish;
- xalqaro terrorizm va unga qarshi kurashning zamonaviy usullaridan foydalanish;
- O‘zbekistonda demokratik islohotlarning zamonaviy bosqichining asosiy tamoyillarini amaliyotga tadbiq etish;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning siyosiy jihatlarini ochib berish;
- siyosiy jarayonlarni tadqiq etishning innovatsion usullaridan foydalanish;
- globallashuv sharoitida davlat institutlari transformatsiyasini jahon siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlariga jiddiy ta’sirini tahlil qilish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

- Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-

so‘rovlар, test so‘rovlари, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhлar bilan ishslash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Siyosatshunoslik fanining zamonaviy muammolari va amaliy yo‘nalishlari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish”, “Pedagogik faoliyatda raqamlı kompetensiyalar”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari”, “Xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiyalarini” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida siyosatshunoslik fanining metodologik asoslari va zamonaviy yondashuvlarini, demokratik jarayonlarning zamonaviy tendensiyalarini va siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Siyosatshunoslik fanining zamonaviy muammolari va amaliy yo‘nalishlari moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaiyl mashg‘ ulot	Ko‘chma mashg‘ ulot
1.	Siyosatshunoslik fanining metodologik asoslari va zamonaviy yondashuvlari. Globallashuv sharoitida davlat institutlarining transformatsiyasi	10	2	2	6
2.	Demokratik jarayonlarning zamonaviy tendensiyalarini. Zamonaviy saylov tizimlari va elektoral jarayonlar.	4	2	2	
3.	Siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining roli. Siyosiy mafkura va uning zamonaviy shakllari.	10	2	2	6
4.	Siyosiy konfliktologiya va mojarolarni boshqarish. O‘zbekistonda demokratik islohotlarning zamonaviy bosqichi.	4	2	2	
	Jami:28	28	8	8	12

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Siyosatshunoslik fanining metodologik asoslari va zamonaviy yondashuvlari (2 soat).

Reja:

- 1.1. Siyosatshunoslik fanining metodologik asoslari va zamonaviy yondashuvlari.
- 1.2. Siyosatshunoslikda yangi ilmiy paradigmalar va tadqiqot usullari.
- 1.3. Zamonaviy siyosiy tizimlar: tahlil va qiyosiy o‘rganish.

2-mavzu: Demokratik jarayonlarning zamonaviy tendensiyalari (2 soat).

Reja:

- 2.1. Demokratik jarayonlarning zamonaviy tendensiyalari.
- 2.2. Siyosiy modernizatsiya nazariysi va amaliyoti ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar jarayonida.
- 2.3. Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish dinamikasi. Siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlarning evolyutsiyasi.

3-mavzu: Siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining roli (2 soat).

Reja:

- 3.1. Siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining roli.
- 3.2. Siyosiy madaniyat va siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlari.
- 3.3. Siyosiy yetakchilik va elitlar nazariyasi.

4-mavzu: Siyosiy konfliktologiya va mojarolarni boshqarish (2 soat).

Reja:

- 4.1. Siyosiy konfliktologiya va mojarolarni boshqarish.
- 4.2. Milliy xavfsizlik va uning zamonaviy tahdidlari.
- 4.3. Siyosiy prognozlashtirish va modellashtirish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Globallashuv sharoitida davlat institutlarining transformatsiyasi (2 soat).

Globallashuv sharoitida davlat institutlarining transformatsiyasi jahon siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlariga jiddiy ta’siri.

2-amaliy mashg‘ulot: Zamonaviy saylov tizimlari va elektoral jarayonlar (2 soat).

Zamonaviy saylov tizimlari va elektoral jarayonlar. Siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmlari va texnologiyalari.

3-amaliy mashg‘ulot: Siyosiy mafkura va uning zamonaviy shakllari (2 soat).

Siyosiy mafkura va uning zamonaviy shakllari. Siyosiy xulq-atvor va siyosiy ishtirok masalalari.

4-amaliy mashg‘ulot: O‘zbekistonda demokratik islohotlarning zamonaviy bosqichi (2 soat).

O‘zbekistonda demokratik islohotlarning zamonaviy bosqichi. Siyosiy jarayonlarni tadqiq etishning innovatsion usullari.

KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI

Ko‘chma mashg‘ulotlar “Siyosatshunoslik fanining metodologik asoslari va zamonaviy yondashuvlari” (6 soat) hamda “Siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining roli” (6 soat) mavzulari yuzasidan zamonaviy jihozlar hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llab faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari, iqtisodiyot tarmoqlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik muassasalarida olib boriladi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

I. Maxsus adabiyotlar

1. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.
2. B.I.Ismailov, I.I.Nasriyev Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish masalalari//O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T.:O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi. Sudyalar oliy maktabi, 2020.-272 b.
3. Юсуфжанов О., Усманова С. Зарубежный опыт противодействия коррупции. // -Т.: Адвокат, 2016. №5 - 59-626.
4. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.
5. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.
6. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.
7. Виртуальная реальность как новая исследовательская и образовательная среда. Церфуз Д.н. и др. // ЖУРНАЛ Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России», 2015. – с.185-197.

8. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 б.
9. Игнатова Н. Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
10. Кирьякова А.В., Ольховая Т.А., Михайлова Н.В., Запорожко В.В. Интернет-технологии на базе LMS Moodle в компетентностно-ориентированном образовании: учебно-методическое пособие / А.В. Кирьякова, Т.А. Ольховая, Н.В. Михайлова, В.В. Запорожко; Оренбургский гос. ун-т. – Оренбург: ОГУ, 2011. – 116 с. http://www.osu.ru/docs/fpkp/kiryakova_internet_technologies.pdf
11. Кононюк А.Е. Облачные вычисления. – Киев, 2018. – 621 с.
12. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
13. Emelyanova O. A. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.
14. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.
15. M.Xurramov. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish [Matn]: metodik qo‘llanma / M.Xurramov. K.Xalmuratova. – T.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024. – 28 b.
16. Тенденции и развития высшего образования в мире и в России. Аналитический доклад-дайджест. - М., 2021.- 198 с.
17. A.S. Zikriyoyev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o‘zingizni kashf qiling. -T.: Navro‘z,2020. ISBN.9789943659285
18. Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor, Tashkent 2019, ISBN: 8175 25766-0.
19. Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.
20. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.
21. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
22. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 б.
23. Печеркина, А.А.Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика [Текст]:монография/А.А.Печеркина,

Э.Э.Сыманюк, Е.Л.Умникова: Урал. гос. пед. ун-т.–Екатеринбург:[б.и.], 2011. – 233 с.

24. О.С. Фролова. Формирование инновационной компетенции педагога в процессе внутришкольного повышения квалификации. Дисс.к.п.н. Воронеж 2018.

25. Компетенции педагога XXI века [Электронный ресурс]: сб. материалов респ. конференции (Минск, 25 нояб. 2021 г.) / М-во образования Респ. Беларусь, ГУО «Акад. последиплом. образования», ОО «Белорус. пед. о-во». – Минск: АПО, 2021.

26. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Т.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 б.

27. Ishmuhamedov R, Mirsoliyeva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – Т.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 б.

28. Коджаспирова Г.М. Педагогика в схемах, таблицах и опорных конспектах./ -М.:Айрис-пресс, 2016.

29. Натанзон Э. Ш. Приемы педагогического воздействия. - М, 2012. - 202 с.

30. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2014.

31. Хасанов У.Введение в международные отношения . Т .: ЖИДУ , 2008.

32. Гаджиев К.С . Геополитика.-М.: Юрайт, 2012.

33. Нартов Н.А. Геополитика: Учебник.-М.: ЮНИТИ- ДАНА, Единство, 2011.

34. Мухаев Р.Т. Геополитика: Учебник.-М.:ЮНИТИ, 2010.

35. Сыганков П.А. Теория международных отношений.- М., 2010.

36. Современные международные отношения и мировая политика. /Под ред. Торкунова А.В. - М.: Просвещение, 2010.

37. Ачкасов В.А Мировая политика и международные отношения.-М.: Аспект-Пресс, 2011.

38. Xasanov U. Xalqaro munosabatlar nazariyasi. - Т.:JIDU, 2013.-156 б.

39. Muminova N. Xalqaro tashkilotlar.-T.: JIDU. 2013. -75 б.

40. Zaripova Z. Konfliktlogiya. -T.:JIDU. 2013.-167 б .

41. Wallerstein I. World - Systems Analysis: AnIntroduction.-Durham, NC: Duke University Press. 2004.

42. Wooffitt R. Conversation Analysis and Discourse Analysis. A Comparative and Critical Introduction. - London: SAGE Publications, Thousand Oaks, 2005 .

43. Гуломов Х.Г., Холлиев А.Г. Международные связи Республики Узбекистан с Великобританией и США (1991-2001 гг .) . -Ташкент: Миллый университет, 2002 .

44. Хакимов Р.Т. Узбекистан и ООН.-Ташкент: Зар Калам, 2006.

45. Хакимов Р. Узбекистон ва Бирлашган миллатлар ташкилоти.-М.: ООО Нестор Академик П.Алишера. 2001.
46. Нуриддинов Э. Международное сотрудничество Узбекистана со странами и Европы.- Т.:Чулпон. 2002.
47. Qarshiboyev M. Uzbekistan-USA: a new era of strtegic partnership: Book-album.-T.: Uzbekistan, 2018.
48. Shukurzoda M. AQSh -O'zbekiston hamkorligi fakt va raqamlarda 1992-2016: Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekiston Respublikasi o'rtaida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25 yil to'lishi munosabati bilan.-T.: Niso Poligraf, 2016.
49. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari.-T.:Toshkent islom universiteti, 2013.- 246 bet.
50. Juraev S., Saidolimov S., Abduganiev Z. Xalqaro xavfsizlik.-T.: Akademiya. 2007- 175 bet.
51. G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari.-T.: O'zbekiston, 2013.- 312 bet.

II. Elektron ta'lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. www.Ziyonet. Uz
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.press-service.uz
9. www.parliament.gov.uz
10. www.gov.uz
11. www.mfa.uz
12. www.zivonet.uz
13. www.iahonnews.uz
14. www.mfer.uz

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalg etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda -yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasи

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalari ma’lum belgilari bo‘yicha guruhanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g’ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalari vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g’ri qo‘ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:


- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqt ni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarining ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.


“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘matib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarining mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan



“Davra suhbati” metodining tuzilmasi

“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o’tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqlarini”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqlarini”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlarini bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbati” metodining afzalliklari:

2. ELEKTORAL TEXNOLOGIYALARINI O'RGANISH

Quyidagi zamonaviy saylov texnologiyalarini tahlil qiling:

- Elektron ovoz berish tizimlari
- Masofaviy ovoz berish
- Biometrik identifikatsiya
- Blockchain texnologiyalari
- Saylov jarayonlarini monitoring qilish tizimlari

II. KEYSLAR TO'PLAMI

1-KEYS: "Elektron saylov tizimini joriy etish"

Vaziyat tavsifi:

Viloyatda elektron saylov tizimini joriy etish rejalashtirilmoqda. Mavjud muammolar:

- Aholining kompyuter savodxonligi turli darajada
- Internet qamrovi notekis

- Xavfsizlik masalalari mavjud
- Jamoatchilik orasida ishonchsizlik
- Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi

Vazifalar:

1. Elektron saylov tizimini joriy etish konsepsiyasini ishlab chiqing
2. Xavfsizlik choralarini belgilang
3. Jamoatchilik ishonchini oshirish bo'yicha takliflar bering
4. Pilot loyihani amalga oshirish rejasini tuzing
5. Samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlang

2-KEYS: "Saylov kampaniyasini tashkil etish"

Vaziyat tavsifi:

Mahalliy kengash saylovlari o'tkazilmoqda. Quyidagi masalalarni hal qilish kerak:

- Saylovchilar faolligini oshirish
- Yoshlarni saylov jarayoniga jalb qilish
- Saylov jarayoni shaffofligini ta'minlash
- Saylov qonunchiligi talablariga rioya qilish
- Media-rejani ishlab chiqish

Vazifalar:

1. Saylov kampaniyasi strategiyasini ishlab chiqing
2. Saylovchilar bilan ishlash dasturini tuzing
3. PR-tadbirlar rejasini tayyorlang
4. Saylov kuzatuvchilari bilan ishlash mexanizmini belgilang
5. Nizoli vaziyatlarni hal qilish tartibini ishlab chiqing

3-KEYS: "Saylov natijalarini qayta hisoblash"

Vaziyat tavsifi:

Saylov natijalarini qayta hisoblash talab qilinmoqda. Muammolar:

- Protokollardagi nomuvofiqliklar
- Texnik xatolar mavjudligi
- Nomzodlarning e'tirozlari
- Jamoatchilik nazorati talablari
- Vaqt chegaralari

Vazifalar:

1. Qayta hisoblash tartibini ishlab chiqing
2. Shaffoflikni ta'minlash mexanizmlarini belgilang
3. Kuzatuvchilar ishtirokini ta'minlash rejasini tuzing
4. Natijalarni rasmiylashtirish tartibini aniqlang
5. Apellyatsiya tartibini ishlab chiqing

III. AMALIY MASHQLAR

1-mashq: "Saylov kampaniyasi strategiyasi"

Guruqlar quyidagi rollarni o'ynaydilar:

- Saylov shtabi
- PR-agentlik
- Sotsiologik xizmat
- Media-guruh
- Yuridik xizmat

Har bir guruh o'z yo'nalishi bo'yicha strategiya ishlab chiqadi va himoya qiladi.

2-mashq: "Saylov nizolarini hal qilish"

Talabalar tipik saylov nizolari bo'yicha rolli o'yin o'tkazadilar:

- Saylov komissiyasi a'zolari
- Nomzodlar vakillari
- Kuzatuvchilar
- Huquq-tartibot organlari vakillari
- Ommaviy axborot vositalari vakillari

IV. BAHOLASH MEZONLARI

1. Nazariy bilimlar (0-20 ball):
 - Saylov tizimlari haqida bilim
 - Qonunchilik asoslarini tushunish
 - Zamonaviy tendensiyalarni bilish
2. Amaliy ko'nikmalar (0-20 ball):
 - Vaziyatni tahlil qilish qobiliyati
 - Muammolarni hal qilish ko'nikmasi
 - Qarorlar qabul qilish

3. Taqdimot ko'nikmalari (0-10 ball):

- Ma'lumotni aniq yetkazish
- Savollar va muhokamalarda ishtirok
- Argumentlar keltirish qobiliyati

V. QO'SHIMCHA TOPSHIRIQLAR

1. Tahliliy ma'ruza tayyorlash:

- Zamonaviy saylov texnologiyalari
- Xorijiy davlatlar saylov tizimlari
- Saylov jarayonlarida innovatsiyalar
- Elektoral xulq-atvor modellari

2. Loyiha tayyorlash:

- "Saylovchi maktabi" dasturi
- Elektron saylov platformasi konsepsiysi
- Saylovchilar faolligini oshirish dasturi
- Saylov monitoringi tizimi

3. Statistik tahlil:

- Saylov natijalarini tahlil qilish
- Saylovchilar faolligi dinamikasi
- Elektoral xulq-atvor tendensiyalari
- Saylov kampaniyalari samaradorligi

VI. MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Zamonaviy saylov tizimlarining transformatsiyasi
2. Elektron demokratiya elementlarining joriy etilishi
3. Saylov jarayonlarida innovatsion texnologiyalar
4. Saylovchilar faolligini oshirish mexanizmlari
5. Saylov jarayonlari shaffofligini ta'minlash
6. Xalqaro saylov standartlari
7. Saylov tizimlarining demokratlashuvi

**3-amaliy mashg'ulot: Siyosiy mafkura va uning zamonaviy shakllari
(2 soat).**

Siyosiy mafkura va uning zamonaviy shakllari. Siyosiy xulq-atvor va siyosiy

ishtirok masalalari.

I. TAHLILIY TOPSHIRIQLAR

1. ZAMONAVIY MAFKURALARNI TAHLIL QILISH

Guruhlar quyidagi mafkuraviy oqimlarni tahlil qiladilar:

- Neoliberalizm
- Sotsial-demokratiya
- Milliy konservativizm
- Ekologik mafkura
- Texnokratik g'oyalar

Tahlil yo'nalishlari:

- Asosiy g'oyalar va qadriyatlar
- Ijtimoiy baza
- Zamnaviy ko'rinishlari
- Ta'sir doirasi
- Rivojlanish tendensiyalari

2. SIYOSIY XULQ-ATVORNI O'RGANISH

Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot o'tkazish:

- Yoshlar siyosiy xulq-atvori
- Internet-faollik shakllari
- Ijtimoiy tarmoqlardagi siyosiy ishtirok
- Fuqarolik pozitsiyasi shakllari
- Norasmiy siyosiy harakatlar

II. KEYSLAR TO'PLAMI

1-KEYS: "Yoshlar siyosiy faolligi"

Vaziyat tavsifi:

Universitetda talabalar siyosiy faolligini oshirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Mavjud holatlar:

- Talabalarning siyosiy jarayonlarga qiziqishi past
- Ijtimoiy tarmoqlarda faol, ammo real ishtirok sust
- Siyosiy bilim darajasi yetarli emas
- An'anaviy siyosiy institutlarga ishonchsizlik

- Yangi shakldagi siyosiy ishtirok talabi mavjud

Vazifalar:

1. Yoshlar siyosiy faolligini oshirish dasturini ishlab chiqing
2. Zamonaviy kommunikatsiya kanallaridan foydalanish strategiyasini tuzing
3. Siyosiy ta'lim va ma'rifikat dasturini taklif eting
4. Amaliy ishtirok shakllarini ishlab chiqing
5. Motivatsiya tizimini yaratting

2-KEYS: "Mafkuraviy ta'sir operatsiyalari"

Vaziyat tavsifi:

Ijtimoiy tarmoqlarda mafkuraviy ta'sir kampaniyasi aniqlandi:

- Yolg'on axborot tarqatish
- Manipulyativ texnologiyalar qo'llanishi
- Ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kuchaytirish
- Milliy qadriyatlarga salbiy ta'sir
- Yoshlar ongiga mafkuraviy ta'sir

Vazifalar:

1. Vaziyatni tahlil qiling va xavf darajasini aniqlang
2. Qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqing
3. Mafkuraviy immunitetni kuchaytirish choralarini belgilang
4. Axborot xavfsizligi choralarini taklif eting
5. Monitoring tizimini ishlab chiqing

3-KEYS: "Siyosiy ishtirok mexanizmlari"

Vaziyat tavsifi:

Mahalliy darajada fuqarolar siyosiy ishtirokini faollashtirish talab etilmoqda:

- Fuqarolar passivligi
- Qarorlar qabul qilishda ishtirok etish mexanizmlari sustligi
- Jamoat taskilotlari faoliyati samarasini pastligi
- Mahalliy hokimiyat va aholi o'rtasida muloqot yetishmasligi
- Fuqarolik tashabbuslarini amalgalash qiyin

Vazifalar:

1. Fuqarolar ishtirokining yangi mexanizmlarini taklif eting

2. Jamoat nazoratini kuchaytirish usullarini ishlab chiqing
3. Fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratting
4. Mahalliy hokimiyat bilan muloqot platformasini taklif eting
5. Natijalar ni baholash mezonlarini ishlab chiqing

III. AMALIY MASHQLAR

1-mashq: "Mafkuraviy platformalar tahlili"

Guruuhlar turli siyosiy kuchlarning mafkuraviy platformalarini tahlil qiladilar:

- G'oyaviy asoslar
- Maqsad va vazifalar
- Ijtimoiy baza
- Amalga oshirish mexanizmlari
- Kutilayotgan natijalar

2-mashq: "Siyosiy kommunikatsiya"

Talabalar quyidagi rollarni o'ynaydilar:

- Siyosiy tashkilot vakillari
- Ommaviy axborot vositalari
- Fuqarolik jamiyati instituti
- Ekspertlar
- Jamoatchilik vakillari

IV. BAHOLASH MEZONLARI

1. Nazariy tayyorgarlik (0-20 ball):
 - Mafkuraviy jarayonlarni tushunish
 - Siyosiy ishtirok nazariyasini bilish
 - Zamonaviy tendensiyalarini anglash
2. Amaliy ko'nikmalar (0-20 ball):
 - Tahlil qilish qobiliyati
 - Loyihalarni ishlab chiqish
 - Muammolarni hal qilish
3. Ijodiy yondashuv (0-10 ball):
 - Innovatsion g'oyalar
 - Kreativ yechimlar

- Noan'anaviy yondashuvlar

V. QO'SHIMCHA TOPSHIRIQLAR

1. Tadqiqot loyihasi:

- Zamonaviy mafkuraviy oqimlar tahlili
- Yoshlar siyosiy xulq-atvori monitoringi
- Ijtimoiy tarmoqlardagi siyosiy faollik tadqiqoti
- Siyosiy ishtirok shakllari evolyutsiyasi

2. Amaliy loyiha:

- "Fuqaro maktabi" dasturi
- Siyosiy ta'lim platformasi
- Jamoat nazorati mexanizmlari
- Fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash dasturi

3. Tahliliy material:

- Mafkuraviy jarayonlar monitoringi
- Siyosiy ishtirok dinamikasi
- Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati
- Siyosiy madaniyat rivojlanishi

VI. MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Zamonaviy mafkuralarning transformatsiyasi
2. Raqamlı texnologiyalar va siyosiy ishtirok
3. Mafkuraviy xavfsizlik masalalari
4. Yoshlar siyosiy faolligining yangi shakllari
5. Fuqarolik jamiyati va siyosiy ishtirok
6. Siyosiy madaniyat evolyutsiyasi
7. Virtual siyosiy maydon xususiyatlari
8. Mafkuraviy immunitet masalalari

VII. AMALIY NATIJALAR

Mashg'ulot yakunida talabalar:

1. Zamonaviy mafkuraviy jarayonlarni tahlil qila olishlari

2. Siyosiy ishtirok mexanizmlarini tushunishlari
3. Mafkuraviy xavf-xatarlarni aniqlay olishlari
4. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantira olishlari
5. Siyosiy kommunikatsiya ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak

4-amaliy mashg'ulot: O'zbekistonda demokratik islohotlarning zamonaviy bosqichi (2 soat).

O'zbekistonda demokratik islohotlarning zamonaviy bosqichi. Siyosiy jarayonlarni tadqiq etishning innovatsion usullari.

I. TAHLILIY TOPSHIRIQLAR

1. DEMOKRATIK ISLOHOTLAR TAHLILI

Guruhlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil o'tkazadilar:

- Davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlar
- Saylov tizimidagi o'zgarishlar
- Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishi
- Iqtisodiy liberallashtirish
- Ma'muriy islohotlar

Tahlil yo'nalishlari:

- Huquqiy asos
- Amalga oshirilgan chora-tadbirlar
- Erishilgan natijalar
- Mavjud muammolar
- Rivojlanish istiqbollari

2. INNOVATSION TADQIQOT USULLARINI QO'LLASH

Quyidagi usullarni amalda qo'llash:

- Big Data tahlili
- Ijtimoiy tarmoqlar monitoring
- Prognozlashtirish modellari
- Sotsiologik tadqiqotlarning zamonaviy usullari
- Raqamlı analitika vositalari

II. KEYSALAR TO'PLAMI

1-KEYS: "Mahalliy boshqaruv islohoti"

Vaziyat tavsifi:

Tuman hokimligi faoliyatini transformatsiya qilish loyihasi amalga oshirilmoqda:

- Boshqaruv samaradorligi past
- Aholi bilan muloqot sustligi
- Raqamlashtirish darajasi past
- Kadrlar malakasi yetarli emas
- Korrupsiya xavfi mavjud

Vazifalar:

1. Hokim faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing
2. "Elektron hokimlik" modelini taklif eting
3. Kadrlar salohiyatini oshirish dasturini tuzing
4. Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash mexanizmlarini belgilang
5. Korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini ishlab chiqing

2-KEYS: "Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish"

Vaziyat tavsifi:

Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha loyiha ishlab chiqilmoqda:

- Fuqarolar faolligi past
- Nazorat mexanizmlari samarasiz
- Hokimiyat organlarining hisobdorligi sustligi
- Jamoat tashkilotlari salohiyati yetarli emas
- Huquqiy mexanizmlar takomillashtirishni talab qiladi

Vazifalar:

1. Jamoatchilik nazoratining yangi mexanizmlarini taklif eting
2. Fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtiring
3. Jamoat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash choralarini belgilang
4. Ochiq ma'lumotlar platformasini yarating
5. Natijalarni baholash tizimini ishlab chiqing

3-KEYS: "Demokratik islohotlar monitoringi"

Vaziyat tavsifi:

Demokratik islohotlar monitoringini o'tkazish talab etilmoqda:

- Ko'p parametrli baholash zaruriyati
- Ma'lumotlar yig'ish qiyin
- Xalqaro standartlarga muvofiqlik masalasi
- Natijalarini tahlil qilish murakkabligi
- Monitoring natijalarini amaliyatga joriy etish muammosi

Vazifalar:

1. Monitoring metodologiyasini ishlab chiqing
2. Baholash indikatorlarini aniqlang
3. Ma'lumotlar yig'ish tizimini taklif eting
4. Tahlil qilish usullarini belgilang
5. Natijalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqing

III. AMALIY MASHQLAR

1-mashq: "Islohotlar samaradorligini baholash"

Guruhlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha baholash o'tkazadilar:

- Davlat xizmatlari sifati
- Investitsion muhit
- Tadbirkorlik faoliyati erkinligi
- Aholi turmush darajasi
- Ijtimoiy himoya tizimi

2-mashq: "Fuqarolik jamiyatni institutlari"

Talabalar quyidagi rollarni o'ynaydilar:

- NNT vakillari
- Davlat organlari
- Ommaviy axborot vositalari
- Ekspertlar
- Fuqarolar vakillari

IV. BAHOLASH MEZONLARI

1. Nazariy bilimlar (0-20 ball):

- Islohotlar mazmunini tushunish
- Huquqiy asoslarni bilish
- Xalqaro tajribani o'rganish

2. Amaliy ko'nikmalar (0-20 ball):

- Tahlil qilish qobiliyati
- Loyihalarni ishlab chiqish
- Muammolarni hal qilish

3. Innovatsion yondashuv (0-10 ball):

- Zamonaviy usullarni qo'llash
- Yangi g'oyalar taklif etish
- Kreativ yechimlar

V. QO'SHIMCHA TOPSHIRIQLAR

1. Ilmiy-tadqiqot loyihasi:

- Islohotlar samaradorligi tahlili
- Fuqarolik jamiyatni rivojlanishi
- Demokratik institutlar faoliyati
- Innovatsion rivojlanish yo'nalishlari

2. Amaliy loyiha:

- "Elektron demokratiya" platformasi
- Jamoatchilik nazorati mexanizmlari
- Fuqarolar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash
- Davlat-xususiy sheriklik modellari

3. Monitoring:

- Islohotlar natijalarini baholash
- Fuqarolar faolligini o'rganish
- Davlat xizmatlari sifatini tekshirish
- Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili

VI. MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekistonda demokratik islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari
2. Zamonaviy bosqichning asosiy yo'nalishlari
3. Islohotlarning huquqiy asoslari
4. Fuqarolik jamiyatni institutlarining roli
5. Xalqaro hamkorlik masalalari

6. Innovatsion rivojlanish istiqbollari
7. Raqamli transformatsiya jarayonlari
8. Islahotlarning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi

VII. AMALIY NATIJALAR

Mashg'ulot yakunida talabalar:

1. Demokratik islahotlar mazmunini tushunishlari
2. Zamonaviy tadqiqot usullarini qo'llay olishlari
3. Islahotlar samaradorligini baholay olishlari
4. Loyihalarni ishlab chiqsa olishlari
5. Innovatsion yondashuvlarni qo'llay olishlari kerak

V.GLOSSARIY

Avtoritarizm – hokimiyatning bir shaxs yoki guruh qo‘lida markazlashuvi bilan tavsiflanadigan siyosiy rejim

Agregatsiya – (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish, ya’ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida turli manfaatlar uyg‘unlashtiriladi va ular o‘rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi. Bu jarayonda asosiy va muhim manfaatlar tanlab olinadi ularni qondirish chora va tadbirlari ko‘riladi.

Adolat – (arab. – odillik, to‘g‘rilik) u yoki bu qadriyatlarning o‘zaro umumiyligini va ularning individlar o‘rtasida konkret taqsimlanishini ifodalovchi tushuncha; insonning mohiyati va uning ajralmas huquqlarini haqidagi tasavvurlarga mos bo‘lgan jamoa tartibi.

Aktor – (lot. “actor” - arbob); muayyan xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi individ, ijtimoiy guruh, institut yoki boshqa subyekt, ziddiyatlarda ishtiroy etuvchi tomonlar. Siyosatshunoslikda aktor va subyekt tushunchalari sinonim sifatida ishlataladi.

Alarmizm – intellektual va ekspertlarni birlashtiruvchi zamonaviy g‘oyaviy oqim. U xavf solayotgan global muammolar – yadroviy, ekologik v.x. borasida ogohlantiradi.

Amaliy siyosatshunoslik – bu siyosiy sohaning rivojlanish mexanizmlari va tendensiyalari to‘g‘risidagi bilimlardan foydalanishga va shunga asoslangan tamoyillar va usullarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ijtimoiy muhandislik va siyosiy fan bo‘limi: 1) muammoli siyosiy vaziyatlarni tahlil qilish, tashxis qilish va prognozlash; 2) standart siyosiy qarorlar va tartiblarning variantlarini ishlab chiqish va tanlash; 3) siyosiy jarayonga ta‘sir ko‘rsatishga qaratilgan algoritm va texnologiyalarni qurish.

Anaxronizm – (yunon. ana-orqaga,chromos-vaqt, zamon); yanglish holda bir davrdagi voqealarni boshqasiga almashtirib qo‘yish.

Apatiya – (yunon.) butunlay befarqlik holati, loqaydlik.

Axborot – (“informatio” lotinchadan ma‘lumotlar, tushuntirishlar, bayonlarni anglatadi) – bu ma’muriy, tashkiliy tadbirlar o‘tkazish haqida qarorlarni qabul qilish uchun, shuningdek taklif va tavsiyalarni tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi muhim faktlar (shaxslar, harakatlar, tashkilotlar, voqealar) to‘g‘risidagi ma‘lumotdir. Falsafiy nuqtai nazardan axborot bizning ma‘lumot (belgi) olish natijasida o‘rganilayotgan hodisalar (jarayonlar) haqida tasavvurlarimizning noaniqligini kamaytirish yoki olib tashlashni ta’minlaydi.

Axborot – (informatsiya) - lot. informare-tasvirlamoq, nimadir haqida

tushuncha tuzish; kimnidir faoliyati, nimadir faoliyati yokiishning ahvoli haqida habar, habardorlik.

Axborot madaniyati – jamiyatning axborot resurslar va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek bu maqsadlarda axborotlashtirish vositalar va axborot texnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilg‘or yutuqlarni qo‘llash qobiliyati. Axborot madaniyati kishida axborot muhiti bilan o‘zaro munosabatda bilim, mahorat, ko‘nikma va refleksli ko‘rsatmalar mavjud bo‘lishi bilan ifodalanadi. Kishining axborot madaniyatining eng muhim elementlaridan biri – axborot resurslarini bilish (ulardan erkin foydalanish imkoniyati).

Axborot erkinligi – fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo‘lib, so‘z, matbuot va boshqa ommaviy axborotga ega bo‘lgan axborotni olish huquqi va qonuniy asosda olingan axborotlarni tarqatish huquqi axborot erkinligi hisoblanadi. O‘z.Res. Konstitutsiyasiga asosan, ommoviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riliqi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar, senzuraga yo‘l qo‘ymaydi (67-modda).

Aql markazlari – (“Think tanks”, “aql trestlari”, “fikrlar fabrikalari”) — bu xususiy manbalar yoki davlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan, amaliyotga yo‘naltirilgan ekspert-tahliliy institutlar va markazlar bo‘lib, ularning asosiy vazifalari tadqiqot, dalillarga asoslangan sharhlar, muayyan ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga molik mavzular hamda loyihalar bo‘yicha tavsiyalar va tahlillardir.

Eng kuchli aql markazlari sanoati rivojlangan mamlakatlarda joylashgan. Ularning yordami bilan ushbu mamlakatlarning rivojlanishi eng yaxshi trayektoriyalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bugungi kunda dunyoning 180 dan ortiq mamlakatlarida 7000 ga yaqin aql markazlari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati AQSH, G‘arbiy Yevropa, Hindiston, Xitoy, Rossiya, Yaponiyada joylashgan.

Bill – ingl. Buyuk Britaniya, AQSH va boshqa davlatlarda qonun chiqaruvchi tashkilot e‘tibor iga havola qilinuvchi qonun loyihasi.

Bipartizm - ijtimoiy sheriklikning ikki subyekti o‘rtasidagi kelishuv

Verbal – (lot.) og‘zaki; bunda siyosiy ishtirokni shaxsning subyektiv jihatiga bog‘liq emasligiga ishoraqilinmoqda.

Veto – (lot. taqiqlayman) davlat boshlig‘i yoki parlament oliv palatasining qonun chiqaruvchi tashkilot qabul qilgan qonunni kuchga kirishini bir muddatga to‘xtatib qo‘yish yoki uni kuchga kiritmaslik huquqi: mutloq veto, kechiktiruvchi veto.

Genezis – yunon. genesis- kelib chiqish; paydo bo‘lish, tashkil topish

jarayoni.

Geosiyosiy bashorat – xalqaro munosabatlar va davlatlararo aloqalarning kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilish

Gildiya tizimi – (nem. korporatsiya) elitalarni shakllantirish tizimlaridan biri. Unga 1) epiklik, yuqori lavozimlarga elitaning quyi qatlamlaridan nomzod tanlash, yuqoriga siljishning pog‘onaviyligi; 2) lavozimlarni egallah uchun ko‘plab rasmiy shartlarning mavjudligi; 3) tanlojni alohida imtiyozli kichik guruh amalga oshirishi; 4) mavjud yetakchi tipini tiklashga, yaratishga, saqlab qolishga harakat qilinishi sigarilar xos.

Gipotetik – faraz qilingan, taxmin qilingan.

Global – fran. global-umumiyy); umuman olganda, butun er yuzi bo‘ylab.

G‘oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta‘sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr

Gumanizm (insonparvarlik) – tenglik,adolat,o‘zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari singdirilgan dunyoqarash.

Guruh – manfaatlar, qarashlar, kasbiy, faoliyat tarzi bo‘yicha birlik va umumiylit kasb etgan shaxslar yig‘indisi, birlashmasi.

Davlat – muayyan hududda jamiyat va uning siyosiy tizimini tashkil etish usuli, hokimiyatning markaziy instituti, jamiyatning siyosiy tashkiloti bo‘lib, ma‘lum bir hudud va unda yashovchi xalqlarni o‘z ichiga oladi. Jamiyatni boshqaruvgaga tizim sifatida Davlat ichki tizimga o‘z vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlarga ega. Davlat odamlar va jamoat guruhlarining faoliyati hamda munosabatlarini tashkil etadi, ularni yo‘naltiradi va nazorat qiladi.

Davlat-xususiy sherikligi – investitsiya, innovatsiya, infratuzilma va boshqa loyiha hamda muhim bo‘lgan davlat, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy ahamiyatga ega dasturlarni ko‘zda tutuvchi chora-tadbirlar majmui. Bunda davlat boshqaruvi, hududiy hukumat organlari va Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolatlangan boshqa davlat tashkilotlari davlat sherigi bo‘la oladi.

Demokratik institutlar – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchidemokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi. Jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi.

Demokratiya (yunoncha, “demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat) – xalq hokimiyati ma’nosini anglatib, xalqni hokimiyat manbai, deb biluvchi siyosiy tizimni shakli. Demokratiya insonni har tomonlama barkamol rivojlanishi

uchun berilgan imkon bo‘lib, davlat konstitutsiyasida ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi tamoyili rasmiy e’lon qilindi, hamda fuqarolarning erkinligi teng huquqligi e’tirof etildi. Demokratiya har bir davrning ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlariga mos shakllanib, rivojlanib boruvchi chegarasiz tabiiy – tarixiy jarayondir.

Detsentralizatsiya – nomarkazlashtirish; markaziy hokimiyat organlari vakolatlarining bir qismini mahalliy hokimiyat organlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarga berish; markazlashuvnibo‘shashtirish yoki bekor qilish, tugatish.

Delfi usuli – ekspertlar guruhining fikrlarini bir necha bosqichda to‘plash va tahlil qilish orqali bashorat qilish.

Diaspora – yun. diaspora -tarqalish ma’nosida bo‘lib, ma‘lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o‘z davlat tuzilmasiga ega, ma‘lum bir xalq millat vakillarining yig‘indisi (masalan O‘zbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi).

Diversifikatsiya – lot. diversification – o‘zgarish, turli-tumanlik, faoliyatni har tomonlamava turli-tuman yo‘nalishlarda rivojlantirishga strategik mo‘ljal olish. Masalan, kapitalni diversifikatsiyalash – iqtisodiy tavakkalchilikning xavfli oqibatini kamaytirish maqsadida kapital mablag‘larni turli obyektlar o‘rtasida bo‘lib-bo‘lib joylashtirish.

Diskurs – ingl. discourse < lat. discursus – suhbat, muomala, monolog, dialog.

Differensiatsiya – (lot. differentia-farqlash, har xillik); taqsimlanish, nimanidir alohida turli xil unsurlarga ajralishi, bo‘laklarga bo‘linish.

Jamiyat – insonlar munosabati va ijtimoiy aloqalar yig‘indisi. Jamiyat tarixiy, moddiy-ma’naviy hayot tarzidan kelib chiqqan holda umumiylorzu-maqсадlari bilan birlashgan insonlar uyushmasining alohida shakli. Jamiyat doimo o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lib, uning asosini doimo insonlar tashkil etadi.

Jamoat birlashmalari – fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalari, olimlarning jamiyatlari, faxriylar va yoshlarning tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi. J.b. – ma’naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyoj-larni qondirish uchun o‘z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolar ixtiyoriy birlashmasi. Jamoat birlashmasi qatnashchilari mazkur birlashmaga mulk qilib bergen mol-mulklariga, shu jumladan, a’zolik badallariga bo‘lgan huquqlarini saqlab qolmaydilar. Ular a’zo sifatida qatnashayotgan jamoat

birlashmasining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar, mazkur birlashma esa o‘z a’zolari majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

Jamoat fondi – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo‘sish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydigan, a’zoligi bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

Jarayon – muayyan vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tgan o‘zgarishlar, voqeа va hodisalarining davomiyligi. J.lar uzlukli va uzlucksiz, tabiiy va sun’iy, takrorlanuvchi va betakror, boshqariluvchi va boshqarilmas bo‘lishi mumkin.

Identifikatsiya – (lot. o‘xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamоq) monandlik. Siyosiy identifikatsiya - u yoki bu siyosiy guruhga o‘zini boshqalardan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

Ijtimoiy hamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar hamda guruhlarning umumiylarini maqsad yo‘lidagi hamjihatligi. Shuningdek, jamiyat barcha a’zolari va ijtimoiy guruhlarning umumiylarini maqsad yo‘lida birgalikda faoliyat olib borishi, ularning o‘zaro hamjihatligini ifoda etadi. U jamiyatning bosh strategik maqsadi, rivojlanish g‘oyasi va maqsadi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning tub manfaatlari yo‘lida aholi hamda ijtimoiy guruhlarning taraqqiyotini ta’minlash uchun keng miqyosda olib boriladigan birgalikdagi faoliyat.

Ijtimoiy sheriklik – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjalarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir

Ijtimoiy sheriklik subyektlari – davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari.

Individ – lot. individuum-bo‘linmas, alohida; inson zotining alohida olingen namunasi, uning vakillaridan biri; har biri alohida, mustaqil mavjud bo‘lgan tirik organizm; shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo‘lib, u ma‘lum va betakror individuallikka ega bo‘ladi.

Inson omili – inson mohiyatiga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlarni – insondagi jismoniy – ruhiy tomonlarning birligi.

Inson huquqlari – unga tor ma’noda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o‘zboshimchalik va noqonuniy ushslash yoki qamash, vijdон va

din erkinligi, ota-onalarning o‘z bolalarini tarbiya qilish huquklari kiradi. Keng ma’nodagi inson huquqlari esa o‘zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi.

Institut – lot. institutum-mahkama, idora, muassasa; tizimlashtirilgan, hammaga tanilgan, amalda qo‘llanilayotgan va e’tirof etilgan (har qachon ham o‘z rasmiy tasdig‘ini topavermaydigan), u yoki bu tarzda mustahkamlangan qoidalar va me’yorlarga muvofiq o‘zaro xatti harakat qilish uchun qo‘llab-quvvatlanayotgan ko‘rsatmalarga ega bo‘lgan ijtimoiy agentlarning o‘zaro hatti harakatlari shakllari kiradi.

Integratsiya – lot. integratio-tiklanish, bajarish; integer-bir butun; qandaydir qismlarning bir butunlikka birlashishi.

Internet – axborot bilan almashish uchun ham kompyuter tarmoqlari foydalanuvchilarni, ham shaxsiy kompterlarni o‘zaro bog‘lovchi butun dunyo axborot kompyuter tarmog‘i.

Internellyatsiya - fr. interpellation < lat. interpellatio < interpellare – munosabat, aloqa, suhbat va boshqa shu kabilarni bo‘lib qo‘yish, qarshi chiqish.

Interfaol muloqot – real vaqt rejimida turli OAV (asosan Internet) vositasida «jonli» muloqot qilish. Shartli ravishda bunday muloqotning bir necha shaklini belgilash mumkin:

Informatsiya – lot. informatio – xabardor qilish, tushuntirish, bayon qilish ma’nolarini beradi. Shuningdek, lot. informare- shakl berish qabilida ham ishlatiladi.

Irratsional – (lot.irrationalis) bilishning asosiy vositasi sifatida his-tuyg‘u, instinkt va e’tiqodni tan oluvchi falsafiy qarash.

Ixtilof (arab. qarama-qarshilik, kelishmovchilik, ziddiyat, nizo) – odamlarning birgalikda harakat qilish usuli bo‘lib, bunda qarama-qarshilik, g‘animlik, erishilgan yakdillik, kelishuv va hamkorlikni buzish tamoyillari ustun turadi

Kasaba uyushmaları – korxona, muassasa, o‘quv yurti va boshqa mehnat jamolarida ishlayotgan ishchi va xodimlarni ijtimoy manfatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishlovchilarning ijtimoiy sherikchiliginini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti;

Kvazi... – lot. turli so‘zlar boshiga qo‘yiluvchi va «go‘yo», «sohta» ma’nolarini beruvchi qo‘srimcha. Masalan, kvazidemokratiya.

Kvintessensiya – (lot. beshinchi asos) biror narsaning asos, mohiyati; eng muhim, eng asosiy.

Kompetent – (lot. sompetents- loyiqlik, mutanosiblik); o‘z bilimi yoki vakolati bilan biron-bir qarorni qabul qilish, masalani yechish yoki ular

yuzasidan hukm chiqarish uchun zarur bo‘lgan ilmga yoki qobiliyatga ega bo‘lishni anglatadi.

Konsensus (lot. consensus – uyg‘unlik, yakdillik, kelishuv) – qaror qabul qilish, nizolarni hal etish usuli. Ushbu tushuncha fikr, mulohazalar birligi, o‘zaro kelishuv, ovoz beruvchilar barchasining roziligi olingan holdagina kuchga kiruvchi qaror qabul qilish ma’nolarini ham beradi. Keng ma’noda, biror-bir masala yuzasidan e’tiroz yo‘qligi asosiy masalalar bo‘yicha umumiy kelishuv bo‘ladi. Ko‘p fikr asosidagi ovoz. Xalqaro shartnomalar tuzishda parlament yoki kengashlarda tegishli qaror qabul qilish; bunda rasman e’tiroz bildirilmasa, ishtirokchilarning umumiy roziligi asosida rasmiy ravishda ovoz berilmaydi. K. usuli, shuningdek, BMT organlarida tan olingan bo‘lib, shu tashkilot doirasida o‘tkaziladigan halqaro konferensiya va kengashlarda qo‘llaniladi.

Konfessiya – lat. cōfessio dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo‘nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha.

Konseptsiya – lot. conceptio-idrok qilish, idrok, o‘zlashtirish; u yoki bu hodisalarga nisbatan qarashlar tizimi; qandaydir hodisalarni ko‘rib chiqish, nimanidir anglash usuli.

Kosmopolitizm – (yunon. kosmopolites — dunyo fuqarosi) — dunyo fuqaroligini da’vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an’ana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg‘usidan voz kechish g‘oyasini ilgari suradigan qarash. Kosmopolitizm- ya’ni, qayerda yaxshi hayot bo‘lsa o‘sha erni vatan deb bilish. Bu tamoyil insonda vatan hissini yo‘qotadi, g‘ururni o‘ldiradi. Bu esa har bir jamiyat uchun halokatlidir.

Ko‘ppartiyaviylik – mamlakat parlamentida ko‘pchilik o‘rinni olish uchun teng imkoniyatga ega bir necha siyosiy partiyalar mavjud bo‘lgan siyosiy tizim.

Kuchli davlat – omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruvi tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma’naviyatga egab bo‘lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy asosga ega bo‘ladi. Uningqudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do‘stlik va bag‘rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

Qonun – qonunchilik hokimiyatining fuqarolar, jamiyat va davlat hayotiga taalluqli munosabatlarda muayyan tartib joriy etish borasidagi irodasining namoyon bo‘lishi.

Qonun ustuvorligi – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat’iy hukmron bo‘ladi. Ya’ni, hech kim, hech birdavlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo‘ysunishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun

bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tadbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

Legitimlik – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Tarixan an’anaviy, xarizmatik, oqilonaqonuniy shakllarda nomoyon bo‘ladi.

Liberalizm – (lot. erkinlik) mafkura, ijtimoiy-siyosiy harakat. U ijtimoiy imtiyozlar va avloddan-avlodga o‘tuvchi hokimyatga qarshi chiqib burjua qatlamlarining qarashlarini o‘zida mujassam etadi. Asosiy tamoyillari: individualizm, erkinlik, bozor va raqobatning mutloqligi, davlatni cheklash zarurligi (asoschilari I.Bentam, J.Mill, A.Smit, G.Spenser).

Liberallashtirish – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo‘lishini, jamiyatning evolyutsion rivojlanish yo‘lini e’tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

Lobby – lot. lobyy-kuluar; jamiyatdagi ma‘lum bir siyosiy doiralar, kuchli iqtisodiy tizilmalar manfaatlarini ifodalovchi, ana shu manfaatlarni amalga oshirish parlament va mansabdorshaxslarga bosim o‘tkazishga intilayotgan guruhlar.

Madaniyat – kishilarning tabiatni, borliqni o‘zlashtirish va o‘zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma’naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo‘llari va uslublari majmui.

Manfaat – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatinting asosiy sababi.

Manfaatlar – lot. interest ahamiyat kasb etish, muhim; obyektiv ravishda ahamiyat kasb etgan, inson, jamoa, millat, jamiyat kabilar uchun zarur bo‘lgan zaruriy ehtiyojlar; kimgadir farovonlik bag‘ishlaydigan, kimgadir foyda keltiradigan narsalar.

Marginal – (fr. «marginal») ikkinchi darajali, oxirgi, chetda turuvchi; siyosatshunoslikda – oldingi ijtimoiy aloqalarini yo‘qotgan, yangi hayot shart-sharoitlariga hali moslasha olmagan, qandaydir ijtimoiy guruhlar orasida yoki eng chekkasida turgan ijtimoiy odam, jamiyatning sirtida qolgan: lyumpen, miskin va hokazo.

Mahalliy (yoki munitsipal) boshqaruvi – ma’muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo‘yiladigan organlar hamda ularning ma’muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish.

Mentalitet – fran.mentalite; lot mentalis-aqliy, ruhiy, ma’naviy, aql

yo‘nalishi aql bichimi, akliy etuklik, zakovat; ma‘lum shaxs, ijtimoiy guruh (kichik, katta, milliy) uchun xarakterli bo‘lgan dunyoqarash, dunyoni anglash, atrof voqelikni qabul usuli; fikrlash tarzi.

Mexanizm – yunon. mechane-quroq, inshoot; harakat va tezlikni amalga oshirish yoki uzatish qurilmasi. Siyosatda ma’joziy ma’noda biron-bir reja, dastur, maqsadni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini va vositalariga nisbatan qo‘llaniladi.

Millat – til, ma’naviyat, milliy o‘zlikni angash ruhiyati, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil subyekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarningetnik birligidir.

Millatlararo munosabatlar — birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o‘rtasida amalga oshadigan turli-tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir.

Model – fran. modele-namuna, tarx, nimanidir tasviri tavsifi.

Modernizatsiyalash – fran. modernizer-zamonaviy; zamonaviylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishdagi o‘zgarishlarni amalga oshirish.

Munitsipal boshqaruv – ingl. municipal o‘zini o‘zi boshqarish; bu boshqaruvning nisbatan nomarkazlashgan shaklidir. Shu bilan bir vaqtning o‘zida u fuqarolik jamiyatining instituti hisoblanadi. Bunday boshqaruv organlarining asosiy belgilari, - ularning saylanishligi va o‘z hududidagi aholi manfaatlari asosida mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlarga rahbarlik qilishdagi nisbatan mustaqillik.

Munitsipalitet – fran.municipalite-shahar o‘zini o‘zi boshqarish organi; ko‘pchilik mamlakatlardagi o‘zini o‘zi boshqarish organlari.

Mustaqil bosma OAV lari – davlat boshqaruvidan holi bo‘lgan, o‘zining fikr va so‘z erkinligini ro‘yobga chiqaruvchi, lekin bunda o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilik doirasidagina olib boruvchi ommaviy axborot vositalaridir.

Nizom – muayyan davlat yoki jamoat tuzilmalarini tashkil etish tartibini, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kodekslashtirilgan normativ hujjat hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik

shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari – o‘z oldida Internet tarmog‘ida ommaviy axborot vositasi (OAV) funksiyalarini bajarish vazifasini qo‘yuvchi nodavlat tusdagi ro‘yxatga olingan veb-saytlari.

Ommaviy axborot vositalari – keng ko‘lamda axborotni yig‘ish, ishlash va tarqatishni ta’minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televide niye va h.k.). Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 3-son, 20-modda)

PR (public relations) - siyosiy subyektlar - siyosatchilar, partiyalar yoki hukumatlarning jamoatchilik bilan muloqotini tashkil etish va boshqarish jarayonini anglatadi.

Parlament – ingl. parliament, frans. parlergapirmoq va so‘zlamoq; parlament oliv qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

Partitsipatsiya – (ingl) ishtirok etmoq; fuqarolar tomonidan davlat va jamiyat ishlarini boshqarish jarayonida u yoki bu funksiyalarini bajarishini shart qilib qo‘yadigan demokratiyaning modeliga doir nisbat.

Partiya – lot. pars (partis)-qism, guruh; qandaydir ijtimoiy qatlama yoki guruhmanfaatlarini ifodalovchi, qandaydir siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi tashkilot.

Passiv saylov huquqi – fuqarolarning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylanish huquqi.

Plyuralizm – lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar mavjud bo‘lgan siyosiy tizim.

Polietnik – ko‘pmillatli, monoetnik – yakka, yagona yoki bir millatli.

Prezident – lot. praesidens (praesidentis) – oldinda o‘tiruvchi, raislik qiluvchi, boshda turuvchi so‘zlaridan olingan bo‘lib, ko‘pchilik Prezidentlik va

parlament respublikalari joriy etilgan mamlakatlarda ma'lum bir muddatga saylangan davlat boshlig'i.

Pressa – fran. presse; ommaviy axborot vositalari; ommaviy joriy matbuot.

Prinsip – lot. principium-asos, dastlabki, boshlang'ich; asos bo'ladigan poydevor g'oyalar; xulq, faoliyat va hatti-harakatning asosiy qoidasi.

Proporsional (- ot. proportionalis-mutanosib; saylovlarda nomzodlar uchun beriladigan ovozlar ro'yxatlar bo'yicha beriladigan, har bir ro'yxat uchun berilgan ovozlarga mutanosib ravishda joy egallanadigan saylov huquqi tizimi.

Profitsit – budgetga nisbatan qo'llanilganida budgetning daromad qismini uning xarajat qismiga nisbatan ortiq bo'lganligini ifodalaydi.

Ratsional – (lot. rationalis-oqilona); maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to'g'ri yo'l ma'nosida ham ishlataladi).

Rejim – fran. rejime; davlat tuzumi, idora etish obrazi.

Saylov – aholining rasmiy mansabni egallahash uchun biror shaxsni tanlashi jarayonidir.

Saylov huquqi – davlat boshlig'i, vakillik organlari va boshqani saylash tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig'indisi. Saylov huquqi, odatda, konstitutsiya va saylov to'g'risidagi maxsus qonunlar bilan belgilanadi.

Sektorlararo nazariya – ijtimoiy sheriklikning uch sektor: davlat organlari, biznes vakillari va fuqarolik jamiyatining institutlari o'rtaсидаги munosabatlarni tartibga solishi to'g'risidagi nazariya

Senat – lot. senatus-eski, qariya; ko'pchilik mamlakatlar parlamentining yuqori palatasi.

Siyosatshunoslik – yunoncha "politika" – davlat va ijtimoiy ishlar hamda "logos" – ta'limot so'zlarning birikishidan tashkil topgan bo'lib, siyosat haqidagi ta'limot ma'nosini anglatadi. Uning siyosiy mohiyati jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida ro'y beradigan voqeа-xodisalar, o'zgarishlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish bilan belgilanadi.

Siyosat subyekti – siyosiy munosabatlarda ishtirok etayotgan kuchlar, sotsial guruhrar, qatlamlar, tashkilotlar siyosiy faoliyatning tashuvchilar, siyosatning subyekti hisoblanadi.

Siyosiy jarayonlar – turli siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhrar, tashkilotlar individlar munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy menejment – "Siyosiy marketing" tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra tushunchasiga juda yaqin bo'lib, shu bilan birga, ular o'rtasida tenglik belgisi qo'yish o'zini oqlamaydi. Bizningcha, barcha siyosiy kompaniyalarni marketing deb atash mumkin emas.

Marketing kompaniyalari – bu saylov kuni saylovchilarning ovozlari

ko‘rinishida, siyosiy dastur yoki qonun loyihasini muayyan muhokama vaqtida qo‘llab-quvvatlash shaklida nisbatan tez daromad olishga intiladigan siyosiy kompaniyalar. Ammo shu bilan birga, qat’iy muddatlar bo‘lmagan siyosiy kompaniyalar mavjud. Misol uchun, siyosiy brendni targ’ib qilishga qaratilgan siyosiy kompaniya cheksiz davom etishi mumkin.

Siyosiy qarashlar – siyosiy qarashlarning shakllanishi va qaror topishida o‘ziga xos an’analar mavjud bo‘lib, siyosiy hodisalar turli xil talqin etilgan.

